



O'ZBEK MAQOMLARIDA AKADEMIK YUNUS RAJABIYNING ETNOGRAFIK TADQIQOTLARI

Muallif: To'raboyeva Bashorat ¹

Affilyatsiya: O'zDSMI, “Milliy qo'shiqchilik” kafedrası o'qituvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14383002>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbek maqomlarining etnik tavsifi hamda musiqashunos, sozanda, xonanda, bastakor, akademik Yunus Rajabiyning maqomlar ustida olib borgan etnografik tadqiqotlari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqomlarni to'plash ishlarida jonbozlik ko'rsatgan musiqashunoslar, xonandalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Etnografiya, musiqashunos, bastakor, musiqa, nota, xonanda, tadqiqot, maqom.

O'zbek xalqi an'analari juda qadimiydir. Ularda ajdodlarimizning kurashi, mehnati hamda turli ma'naviy-madaniy yutuqlari o'z ifodasini topgandir.

O'zbek maqomlarining yaralishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Maqomlarning yuzaga kelishi bastakorlar ijodi mahsuli bo'lsa, ularni to'plab, notaga olib jamlash etnograf-musiqashunoslar mehnati samarasidir. Maqomlarning bizgacha turkum tarzida nota namunalari bilan yaxlit holda yetib kelishida ushbu etnograflarning o'рни beqiyosdir.

Shu sababli, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, boshqa sohalarni rivojlantirish bilan birga, madaniy me'rosimiz bo'lmish maqomlarni yanada rivojlantirish, ijrochilik san'ati va ayniqsa, maqom san'atiga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, maqom san'atining gultoji bo'lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy me'rosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir.

O'zbek maqomlari etnografiyasini o'rganish orqali ajdodlarimizning boy madaniy va ma'rifiy o'tmishini yanada teran anglash mumkin. Ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan nodir ma'naviy boylik hisoblangan maqom asarlari asrlar osha turli axloqiy tushunchalarni betakror badiiy shaklda kishilar qalbiga singdirishda bebaho sarchashma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Etnografiya ijtimoiy fanlardan bo'lib, xalq va elatlarning kelib chiqishini, etnik tarixini, madaniy-maishiy turmush tarzini, an'anaviy mashg'ulotlarini o'rganadi. O'zbek maqomlari etnografiyasi esa o'zbek xalqining ma'naviy me'rosi bo'lmish maqomlarning kelib chiqishini, rivojlanish jarayoni va tarixini o'rganadi.

Etnografiya – xalq haqidagi fandır. Etnografiya atamasi qadimgi yunon tilidagi – “ethnos” – xalq, “grafos” – yozish so'zlarining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, uning tub ma'nosi “xalqlarni ta'riflash, “elshunoslik” demakdir.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki ba'zi hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi. Bu borada V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zarur. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar.

O'zbek musiqa merosini to'plash va yozib borish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib borildi. Bunda dastlab 1919 yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorif Komissarligining San'at bo'limi huzurida tashkil etilgan Badiiy-etnografik komissiyasi e'tiborli faoliyat ko'rsatdi. Komissiya a'zolari – G.Zafariy, V.A.Uspenskiy, N.Mironov va E.Melngaylislar o'z oldilariga O'rta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o'rganishni, uni to'plab nashr etishni va boshqa ilmiy-ijodiy vazifalarni maqsad qilib qo'ydilar.

Bu boradagi dastlabki muhim ishlar mazkur komissiyaning rahbari, Turkistonga 1917-yili kelgan rus kompozitori va musiqiy etnografi V.A.Uspenskiy /1879-1949/ tomonidan amalga oshirildi. Xususan, V.A.Uspenskiy 1921-1922-yillari Buxoroda maqomchi ustozlar – hofiz ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida salobatli Shashmaqom turkumini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi. Bu mehnat natijasi ayrim kamchiliklarga qaramay, masalan, ashula yo'llari tanbur ijrosida yozilgan bo'lib, natijada ovoz tarovatiga xos nafas va xususiy bezaklar yetarlicha aks etmagan, ayrim zarb-usullari, ritm-o'lchov jihatdan nobop shaklda yozilgan va boshqa ustozlar san'atini saqlab qolishda yuksak tarixiy ahamiyat kasb etadi.

V.A.Uspenskiy bilan bir qatorda O'zbek musiqa merosini asrab qolish va uni rivojlantirishda ulkan hissa qo'shgan san'atkorlardan biri akademik Yunus Rajabiydir (1897-1976). Ustoz Rajabiyning o'zbek musiqasining deyarli barcha janrlariga mansub yozuv namunalari ko'p tomlik "O'zbek xalq muzikasi"da (I-V-tomlar, 1955-59.) nashr etilgan. Ushbu to'plamlarda, bolalar qo'shig'i, xalq aytimlari, katta ashulalar, cholg'u kuylari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, muxtasham Shashmaqom turkumi kabi ham musiqiy folklor, ham kasbiy musiqa qatlamlari namunalari munosib o'rin olgan. 1966-1975-yillari Shashmaqom majmuasini olti jildda qaytadan nashr etilishi hamda bu maqomlarni Yunus Rajabiy rahbarligidagi O'zbekiston teleradiosi huzuridagi maqomchilar ansambli ijrosida magnet tasmlar va gramplastinkalarga yozib olinishi bu ro'yxat salmog'ini yanada oshiradi [3, B.6.].

Yunus Rajabiy to'plamlari nisbatan mukammal darajada bajarilganligi bilan o'zbek musiqasini amaliy o'zlashtirish va nazariy o'rganishda benihoya qimmatli manbadir. Ayniqsa, Shashmaqom yozuv yo'llari avvalgi urinishlardan sifatli farq etishni ta'kidlash kerakdir. Bunda ovoz xususiyatlari ma'lum darajada inobatga olinib, kuy-ohanglariga o'zbek mumtoz she'riyati namunalari monand etilganligi, ritm-usullar o'lchov jihatdan muvofiq aks ettirilganligi kabi muhim holatlarni alohida aytish mumkin.

Akademik Yunus Rajabiy to'plab, nashr ettirgan o'zbek maqomlari va o'zbek mumtoz va xalq musiqa asarlarini, so'z mulkining sohibqironi, atoqli publisist, faylasuf-olim, akademik Vohid Zohidov shunday ta'riflaydi: "Boshqa xalqlar kabi, o'zbek xalqi ham

asrlar davomida shunday ulkan, o'ta qudratli va ta'sirchan turli janrlardagi, ajoyib musiqiy asarlar yaratdiki, bu musiqa hamisha o'z ijodkori – xalq bilan birga bo'ldi, shu xalq hayotining oynasi, shu xalq dilining ifodasi va aks sadosi bo'ldi. Ha, xalqning ingrashini ifodalaydigan “Dugohi” bor va yig'isining ramzi bo'lgan va yuragi boyligining in'ikosi hisoblangan “Segohi” bor. Uning to'yiga hamroh “Yor-yori”-yu, qahqahasiga hamroz kuy va raqlari bor. Uning hatto chorasizlikdan chora va nido axtarib qandaydir samoviy, butun mavjudot qudratidan zo'r va yuqori qudratga murojaati – “Munojati” bor. Uning yovga bo'lgan g'azabining va jang maydonidagi mardonavor hayqirig'ining, yer haydab don ekishi va dastgoh oldida mato to'qishining ham, umuman, mehnatining musiqiy mujassami bor-qahramonona jangnoma va jadal mehnatnoma bo'larli ajoyib asarlari bor. Uning munofiq va ayyorlar ustidan achchiq kulishi ham, kaltafahm va beburdarga qaratilgan hajvi ham, go'zal hayot haqidagi eng orzusi ham, qolaversa, do'st va birodarlariga qiladigan shirali hazil-mutoyibalari ham kuyga va kuy matniga solingan”. [6, B.8;]

Piri ustoz Yunus Rajabiy o'zi ko'zlagan mo'ljalidagi natijalarni qo'lga kirita olgan edi. O'zbek maqomlarining go'zal va betakror ijro yozuvlari yaratildi-ki, bu olti maqom – oltin me'rosga aylandi. “Shashmaqom”ning cholg'u va ashula qismlaridagi ijro yozuvlarining to'liq variantini Yunus Rajabiy nisbatan qisqa muddat 4-5 yil ichida yozdirib ulgurdi. Olti maqom asarlarini Yunus Rajabiy o'zi tuzgan maqomchilar ansambli ijrosida davomiyligi 30 soatdan ortiq vaqt mobaynida yangraydigan go'zal ijrolarini ohanrabo tasmalariga O'zbekiston radiostudiyasi va Toshkent gramstudiyasida yozdirdi. Toshkent gramstudiyasida 22 ta katta disklarga ham maqom ijrolari alohida, yanada mukammallashtirilgan nusxada yozdirildi va to'plam sifatida maqom shinavandalariga taqdim etildi.

Shashmaqom qa'riga chuqur kirishganimiz sari uning ilmiy asoslarini, tub qonuniyatlarini idroklash ehtiyojlari tobora ortib boraveradi. Chunki, sal ma'no-mohiyatiga ko'ra Shashmaqom barqaror ilmiy tizim, izchil musiqiy ta'limotdir. Buxoro Shashmaqomi Xorazmda joriy etilishida, eng avvalo, uning amaliy jihatlari emas, aynan shu ilmiy tamoyillari o'zlashtirilganligi ma'lum. Shashmaqom XX asrning o'rtalarida O'zbekistonda Yunus Rajabiy, Tojikistonda Boboqul Fayzullayev, Shonazar Sohibov, Fazliddin Shahobovlar rahbarligida milliy qiyofalarda qayta tiklanganda ham uning musiqiy o'zagi saqlanib, tashqi sifatlari – ijro uslublari, so'z matnlari zamon talablariga qaratilgan holda o'zgartirilgan edi. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, Shashmaqomda har qanday mumtoz san'at navidagi kabi, asos qonun-qoida ustuvor va barqarordir. Ijodiy izlanish esa, ana shu nizomlar asosida amalga oshirilishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ashirov A, Atadjanov Sh. Etnologiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008.
 Ibrohimov O.A. Maqom asoslari. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.
 Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism. Toshkent-1994-yil.
 Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.
 Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006.
 Yu.Rajabiy. Shashmaqom (O'zbek maqomlari). Toshkent-2007.